

ZOONOMIK FRAZEOLOGIZMLARNING ETIMOLOGIK
XUSUSIYATLARI

*Axmedov Xusan Azimjon o'g'li
ISFTI Amaliyot bo'limi mutaxasisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zoonomik frazeologizmlarning etimologik xususiyatlari oolib berilgan. Fransuz tilidagi zoonimik madaniy kodning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun hayvon tarkibiy qismiga ega bo'lgan frazeologik birliklar alohida qiziqish uyg'otadi. hayvonlar ramziy ma'no kasb etgan holda bu tilda so'zlashuvchilarning tajribasini aks ettiruvchi ma'lum bir insoniy fazilatlarining mos lisoniy belgilaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: zoonomik birlik, etimologik xususiyat,Lisoniy ma'no shakllanishi,, Psixolingvistlar .

Аннотация

В данной статье раскрываются этимологические особенности зоономической фразеологии. Фразеологизмы с анималистическим компонентом представляют особый интерес для определения особенностей зоонимического культурного кода французского языка. животные являются одним из соответствующих языковых знаков определенных человеческих качеств, отражающих опыт носителей данного языка, приобретая символическое значение.

Ключевые слова: зоономическая единица, этимологический признак, формирование языкового значения. Психолингвисты.

Hozirgi zamон tilshunosligida zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish turli yo'naliishlarda olib borilmoqda. Bunda asosan, hayvon nomlarining semantik tuzilishiga alohida e'tibor beriladi. Fransuz tilidagi zoonimik madaniy kodning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun hayvon tarkibiy qismiga ega bo'lgan frazeologik birliklar alohida qiziqish uyg'otadi. Inson tashqi qiyofasi mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Undagi barcha psixik xususiyatlar va ularga xos ijodiy faollikning rivojlanish manbalari, albatta, tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitda, ya'ni jamiyatda o'z aksini topadi. Inson tashqi qiyofasi real borliq bilan aloqador tarzda uning ijtimoiy turmushi orqali ko'zga tashlanadi. Mana shu ma'noda inson tashqi qiyofasining ko'rinishi odamlar bilan o'zaro munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Inson tashqi qiyofasini tasvirlash va uni tilda aks ettirish uchun esa frazeologik birliklarning hissasi ancha salmoqlidir. Lisoniy ma’no shakllanishi o‘ziga xos murakkab jarayondir. Ma’no shakllanishida voqelikdagi obyektning muhim xususiyat - belgilarining aks topishi oddiy jarayon emas, balki bu xususiyatlar inson ijtimoiy faoliyati, tajribasi nuqtayi nazaridan muhim bo‘lmogi lozim. Yanada aniqroq qilib aytganda, bunday ahamiyatga moliklik ijtimoiy tajriba asosida yuzaga keladi. Psixolingvistlar ma’noni «inson faoliyatining qiyofasi o‘zgargan shakli» deb ta’riflab, xato qilishmagan, chunki idrok etilayotgan obyektning xususiyatlari insonning ijtimoiy faoliyati jarayonida ko‘zga tashlanadi va farqlanadi [Sh. Safarov :175.]. Shu o’rinda, fransuz tilining zoomorfik kodi fransuz tili va madaniyati sohiblari dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi qiziqarli hodisa ekanligini ta’kidlash maqsadga muvofiq. Ushbu kod universal bo‘lishiga qaramasdan milliy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, hayvonlar ramziy ma’no kasb etgan holda bu tilda so’zlashuvchilarning tajribasini aks ettiruvchi ma’lum bir insoniy fazilatlarining mos lisoniy belgilaridan biri hisoblanadi.

Zoonim komponentli fransuzcha frazeologik birliklarning aksariyati inson xarakterini ifoda etadi. Zoonim komponentli frazeologik birliklar (*keyinchalik ZKFB*) turli struktur modellar bilan ifodalanadi. Masalan, hayvon, qush, baliq, hasharot va sudralib yuruvchilar nomlarining tarkibiy qismini o‘z ichiga oladi va insonlarga xos xususiyatlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Frazeologik birliklarning majoziy xususiyati uning so‘zma-so‘z ma’nosini o‘zaro bog’lash orqali ochiladi. Bu hodisa so’zlovchilarning frazeologik birlik asosidagi tasavvurini ularning intellektual va umumiyligi ta’lim darajasiga, shuningdek, individual xususiyatlariga qarab turlicha idrok etishini ko’rsatadi [YU.G.Sinelnikov, S.A. Androsova: 50]. Til belgilari tizimini o’rganishda milliy madaniyatning stereotiplari va me’yorlarini aniqlash, dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash dunyoni tushunish uchun muhimdir. Chunki, “uning o‘ziga xos xususiyatlarini “g’ayriinsoniy” xususiyatlar bilan taqqoslash “inson xususiyatlarining me’yorlari” sifatida qabul qilinadi” [V. N. Teliya: 241].

Shuningdek, o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, zoonim komponentli ko‘p sonli fransuz frazeologik birliklari inson tashqi ko‘rinishining turli tomonlariga ta’sir qiladi va ular umuman olganda universaldir. “*Kit*”, “*sigir*”, “*cho’chqa*”, “*bedana*”, “*mushuk*”, “*it*”, “*kana*” kabi zoonim komponentli frazeologizmlar shaxs fizikasiga xos xususiyatlarni bildirish uchun ishlataladi. “*Kalamush*”, “*qisqichbaqa*”, “*echki*”, “*cho’chqa*” komponentlari odamning turli xil yuz xususiyatlarining ramzi sifatida ishlaydi. “*Kiyim-kechak va tozalik*” xususiyati kishilarning tashqi qiyofasidagi ozodalik yoki ifloslik nuqtayi nazaridan olib qaraladi. Bu holatda “*quyon*”, “*maymun*”, “*ayiq*”, “*bit*”, “*cho’chqa*”, “*qarg’a*”, “*o’rdak*” kabi zoonimlar xarakterlanadi. Xulq-atvorni tavsiflashda “*qurt*” ishlataladi. “*Zebra*”, “*fil*”, “*qurbaqa*”,

"qarg'a", "cho'chqa", "o'rdak", "toshbaqa", "ilon" zoonimlari yurishning turli turlarini ifodalaydi. "It", "maymun", "echki", "qurbaqa", "bit" komponentli fransuz frazeologik birliklari insonning turli darajadagi jozibadorligini tavsiflaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, fransuzcha ko'p sonli zoonim komponentli frazeologik birliklar salbiy baholash xususiyatiga ega. "Echki", "cho'chqa", "it", "kalamush", "qisqichbaqa", "qurbaqa", "bit", "qarg'a", "o'rdak" va "maymun" kabi hayvon turlari bir qator xususiyatlarning timsoli bo'lishi mumkin. Shubhasiz, frazeologik birliklar tarkibidagi ma'lum bir zoomorfik komponentning tanlanishida so'zlashuvchilarning lingvistik ongidagi har bir hayvonga xos tasavvurlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Gavda holati. Shaxsning to'liqligini, ya'ni semizligini ifodalash uchun "kit", "sigir", "cho'chqa" va "bedana" kabi hayvon nomlaridan foydalaniladi: "*gros comme une baleine*" ("kit kabi semiz") "*gras comme un cochon*" ("cho'chqadek semiz") – "juda semiz". Ozg'inlikni tasvirlash uchun "mushuk" va "it" zoonimlaridan keng foydalaniladi: "*maigre comme un chat de gouttière* - (uy mushugidek ozg'in), "*maigre comme un chien fou* ("jinni itdek ozg'in") - "juda ozg'in, cho'pdek oriq". Past bo'yli shaxsga xos xususiyatlarni bildirish uchun fransuz frazeologik birliklarida *tique* (kana) so'zi qo'llaniladi: "*ne pas être plus grand qu'un tique*". Masalan, badiiy matnlarda ham ular shu tarzda ma'no kasb etadi:

"*Mais, sur mon honneur, le voilà devenu aussi gras qu'un cochon*" (De Las Cases E. Mémorial de Sainte-Hélène. 1963. p. 321). / *Rostini aytsam, u cho'chqadek semiz.* (Mualliflar tarjimasi)

Yuz xususiyatlari. Tahlil natijalari orqali quyidagi zoonimlar inson tashqi qiyoferasini tasvirlash vositalari ekanligi aniqlandi:

- *Le rat* (kalamush) va *le crabe* (qisqichbaqa) kabi hayvon nomlari xunuk yuz timsollaridir: "*avoir la face de rat*" (kalamush yuzli xunuk bo'lmoq).
- "*Kalamush*" va "*echki*" komponentlari inson nigohining salbiy xususiyatini ifodalash uchun ishlatiladi: "*avaler un rat*" (norozi ko'rinishda bo'lmoq), "*avoir les yeux de chèvre morte*" ("o'lik echkining ko'zlariga o'xshamoq") – "hijolatli ko'rinishga ega bo'lmoq".
- "*Baqa*" komponentli frazeologik birliklar insonning nigohiga ijobiy baho beradi: "*faire un œil de crapaud mort d'amour*" (so'zma-so'z tarjimasi: "sevgidan o'layotgan qurbaqa ko'zi bilan qaramoq") - mehr to'la ko'zlar bilan qaramoq".
- *Cochon* (cho'chqa) esa ko'zning kichik va mayda hajmini anglatadi: "*avoir l'œil de cochon*" – "kichik va chuqur botgan ko'zlarga ega bo'lmoq"

Kiyim-kechakni tasvirlash. Shuni ta'kidlash kerakki, *le lapin* (quyon) so'zi inson kiygan kiyimning toza ko'rinishini anglatadi: "*être propre comme un lapin*" (juda ozoda bo'lmoq). Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "maymun", "ayiq", "bit", "cho'chqa", "qarg'a" va "o'rdak" kabi hayvonlar beparvolik bilan tanlangan kiyimni, tartibsizlik va didsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan :

"avoir l'air d'un singe botté" (badbashara bo'lmoq/maymunga o'xshamoq);

"être sale comme un pou (bitlab ketgan istqliqi bo'lmoq) ;

"aller comme un pardessus à un canard" (usti-boshi rosa kir-chir bo'lib yurmoq).

Badiiy matnlarda ham bunday frazeologizmlar tez-tez uchrab turadi: *J'en viens à toi, Moulu. Tu es un nid à poux, ça ne peut pas durer ... tu es sale comme un cochon!*" (Sartre J.-P. La Mort dans l'âme. Livre de poche, 1962. r. 64]. / *Men seni deb keldim, Moulu. Sen bit uyasiswa, bu shunday davom etishi mumkin emas... cho'chqadek iflossan.* (Mualliflar tarjimasi)

Yurish. Frazeologik birlik tarkibiga kiruvchi *le zèbre* (zebra) so'zi tashqi ko'rinishni tasvirlashda har doim tez yuradigan, go'yo qayergadir shoshib ketayotgan odamni ifodalaydi: "courir comme un zèbre" (shoshib yugurib kelmoq). Qo'pol yurishni tavsiflash uchun "fil", "qurbaqa", "qarg'a", "cho'chqa" va "o'rdak" kabi hayvon nomlaridan foydalaniladi :

"être comme un éléphant dans un magasin de porcelaine(s)" – beso'naqay bo'lmoq;

"se dandiner comme un canard" - o'rdakka o'xshab lapanglamоq ;

La tortue (toshbaqa) komponentli frazeologik birliklar insonning sekin yurishini anglatadi: "aller comme une tortue"-toshbaqadek yurmoq.

Sudralib yurishni ifodalash uchun *le serpent* (ilon) so'zi qo'llaniladi:

- "(se) glisser comme un serpent (yoki une couleuvre)- (ilondek sudralib yurmoq).

Le crabe (qisqichbaqa) komponentli frazeologik birliklar inson yurishini tasvirlash maqsadida ishlatilib, chayqaladigan yurishni anglatadi:

-"marcher en crabe" - gandiraklab yurmoq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2008.
2. Kubasova A. O. Obraznaya xarakteristika cheloveka v rumyinskom yazыke cherez sravneniya s jivotnymi i zoometaforы (leksiko-semanticheskiy analiz): avtoref. diss. ... k. filol. n. SPb., 2008. 8 s.
3. Gishkayeva L. N. Frazeologizmy s komponentami-zoonimami i fitonimami v sovremennom pireneyskom i meksikanskem nasionalnyx variantax ispanskogo yazыka: avtoref. diss. ... k. filol. n. M., 2012. 20 s.
4. Androsova S. A. Ob'yektivasiya xarakteristiki cheloveka vo fransuzskoy argoticheskoy frazeologii: diss. ... k. filol. n. Belgorod, 2011. 220 s
5. Guketlova F. N. Zoomorfnyy kod kultury v yazыkovoy kartine mira (na materiale fransuzskogo, kabardinocherkesskogo i russkogo yazыkov): diss. ... d. filol. n. / Int yazыkoznan. RAN. M., 2009. 8 s.
6. Suvanova N.N., Doliyeva L.B. Fransuzcha onomatopik fe'llar ishtirokidagi iboralarda inson ruhiyati tasviri // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2020. — № 2 (31). — B. 65–79.

7. Sinelnikov Yu. G., Androsova S. A. Obraznaya osnova xarakterologicheskix femininnlyx frazeologizmov fransuzskogo argo (na materiale frazeo-tematicheskoy gruppy «Vneshniy oblik cheloveka») // Vestnik Rossiyskogo universiteta druzbi narodov. Seriya: Lingvistika. 2009. № 4. S. 50.
8. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. -M.: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1996.
9. Gergokova J. X. Frazeologicheskaya konseptualizasiya ponyatiya «chelovek»: (na materiale karachayevo-balkarskogo, angliyskogo i russkogo yazykov): avtoref. diss. ... k. filol. n. Nalchik, 2004.
10. Robertus M. M. Xarakteristika lisa v sovremenном nemeskom yazyke: diss. ... k. filol. n. M., 2005.
11. De Las Cases E. Mémorial de Sainte-Hélène. 1963. p. -321.